

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI  
OSHIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI

*Igamberdiyeva Shoiraxon Haydarovna*

*Farg'ona viloyati Beshariq tumani 29-maktab psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini oshirishning psixologik-pedagogik usullari yoritilgan. O'quvchilarning idrok, xotira, tafakkur va diqqat jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar hamda o'qituvchi va psixolog hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Bilish faoliyati, o'quvchi, psixologik jarayonlar, idrok, xotira, tafakkur, motivatsiya, ta'lim texnologiyalari, faollik, pedagogik usullar.

**KIRISH**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Bilish faoliyati orqali o'quvchi atrof-muhitni anglaydi, yangi bilimlarni o'zlashtiradi va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bilish faoliyati psixologik jihatdan idrok, diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu jarayonlarning samarali rivojlanishi o'quvchining ta'limdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida psixologik qonuniyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda motivatsiya asosiy omillardan biridir. Ichki motivatsiya shakllangan o'quvchi bilim olishga qiziqadi, mustaqil izlanadi va yangi ma'lumotlarni faol o'zlashtiradi. O'qituvchi tomonidan rag'batlantirish va ijobiy baholash esa tashqi motivatsiyani kuchaytiradi. Zamonaviy ta'limda interfaol usullar keng qo'llaniladi. Guruhli ishlash, muammoli ta'lim, aqliy hujum, rolli o'yinlar va loyihaviy ta'lim o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning diqqatini jamlash va xotirasini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar ham muhim ahamiyatga ega. Takrorlash, vizual materiallardan foydalanish, sxema va klasterlar tuzish bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Psixologik muhit ham bilish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi o'zini erkin va xavfsiz his qiladigan sinf muhitida faolroq bo'ladi, savol berishdan cho'chimaydi va ijodiy yondashuvni namoyon etadi.

Maktab amaliyotchi psixologi o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganib, ularning bilish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Shuningdek, diqqat sustligi yoki o'qishga qiziqish past bo'lgan o'quvchilar bilan individual ish olib boradi. Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bo'yicha

bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rniga kelganda, ayrim an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, dars jarayonini oqilona tashkil etish, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O'qituvchilarning bilish, ijodiy faoliyatini faollashtirishning psixologik texnologiyasini bilishlari va bilimlarni integrasiyalash usuli bilan darslarni tashkil qilishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni bilimdon, ijodiy fikrlaydigan, tezkor qarorlar qabul qilishga o'rgatish, shuningdek, o'zaro kommunikasiya usullariga o'rgatish lozim.

Individual yondashuv chuqur ilmiy mazmun asosida tashkil etilganida samarali natija berishligini unutmash kerak. Ayni shu o'quvchi bilan muloqot jarayonida o'qituvchi uning bilimlarini baholaydi va bilish jarayonini kerakli yo'lga soladi. O'qitishni individuallashtirish, bir tomondan, o'z shaxsiy ta'lim olish yo'lini tanlash imkoniyati, ikkinchi tomondan, o'qituvchining o'quvchi bilan maxsus muloqot shaklidir, o'qitishning tabaqalashtirilishi o'quv faoliyatining ijodiy stilini rivojlantiradi, o'quvchini o'quv jarayoni ob'ektidan sub'ektiga aylantiradi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonini yangi zamonaviy texnologiyasiz tasavur qilish mumkin emas, shunday ekan har bir ta'lim jarayoni bevosita yangi pedagogik va innovasion texnologiyalar orqali amalga oshirish davr talabidir va u bugun zaruriy ehtiyojdir.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, har bir ijodkor o'qituvchi bugun o'z kasbini ilg'or pedagogik va innovasion texnologiyalarsiz tashkil etmasligi lozim. Bu borada o'ta dolzarb va zarur bo'lgan hamda eng ko'p samara beradigan, ta'lim berish jarayonida o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llar, metod va uslublar, o'qitish shakllari, vositalarini o'qituvchining o'zi yaratadi, takomillashtiradi. Zero, o'qituvchiga kuch-g'ayrat beradigan asosiy manba - o'quvchidir. Ularning qiziqishlari, intilishlari va faolligi o'qituvchiga ruhiy madad, ilhom baxsh etadi. Natijada «Pedagogik texnologiya», «Pedagogik innovasiya» atamalari yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy o'rinni, shubhasiz, ta'lim mazmuni egallaydi. Pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda va turlicha izohlanmoqda. Bular orasida YuNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta'rif e'tiborga loyiqdir: «Pedagogik texnologiya - butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli

metodidir».

Jahon psixologiyasida kognitiv jarayonlarni o'rganish juda katta tajribalar asosidagi ma'lumotlar bazasiga ega. Ayni tadqiqotlar ma'lum ma'noda bilish jarayonlarining ta'lim jarayonidagi o'rni mavzusi bilan ham o'rganilgan. Aleksandr Romanovich Luriya – miya va psixik jarayonlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga katta ta'sir ko'rsatgan atoqli sovet neyropsixologidir. U tomonidan ilgari surilgan "Miyaning uch funksional bloki" nazariyasi zamonaviy neyropsixologiyaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Luriya miya uchta asosiy funksional blokdan iborat bo'lib, ularning har biri psixik faoliyatni ta'minlashda o'z rolini o'ynashi haqidagi quyidagi fikrni taklif qildi:

Energetik blok (tetiklik va uyg'oqlikni tartibga solish bloki): bu blok miya poyasida, subkortikal tuzilmalarda va katta yarim sharlar po'stlog'ining medial qismlarida joylashgan. U miyaning zarur faollik darajasini saqlab turish, po'stloq tonusini tartibga solish, diqqat va uyg'oqlikni ta'minlash uchun javobgardir. Bu blokda buzilishlar diqqatning pasayishiga, charchoqqa, xotira buzilishlariga va boshqa buzilishlarga olib keladi. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki: bu blok katta yarim sharlar po'stlog'ining orqa qismlarida (ensa, chakka va tepa bo'laklarida) joylashgan. U sezgi organlaridan keladigan sensor axborotni qabul qilish va tahlil qilish, shuningdek, bu axborotni xotirada saqlash uchun javobgardir. Bu blokda buzilishlar agnoziyaning turli xillariga (idrok buzilishlari), afaziyaga (nutq buzilishlari) va amneziyaga (xotira buzilishlari) olib keladi.

Psixik faoliyatni dasturlash, tartibga solish va nazorat qilish bloki: bu blok katta yarim sharlar po'stlog'ining oldingi qismlarida (peshona bo'laklarida) joylashgan. U niyatlarni shakllantirish, harakatlarni rejalashtirish, ularning bajarilishini nazorat qilish va natijalarni baholash uchun javobgardir. Bu blokda buzilishlar ixtiyoriy diqqat, rejalashtirish, nazorat va tanqidiy fikrlash buzilishlariga olib keladi.

Luriya nazariyasining asosiy prinsiplari:

Tizimli dinamik lokalizatsiya prinsipi: Luriya psixik funksiyalar miyaning muayyan sohalarida lokalizatsiya qilinmagan, balki o'zaro ta'sir etuvchi miya tuzilmalarining murakkab tizimlari bilan ta'minlanadi, deb ta'kidlagan.

Shu bilan birga, har bir miya tuzilmasi bu tizim ishiga o'z hissasini qo'shadi.

Funksional tizim prinsipi: Luriya psixik funksiyalarni bir nechta bo'g'inlardan iborat bo'lgan murakkab har biri o'z rolini bajaradigan funksional tizimlar sifatida ko'rib chiqqan. Miya plastikligi prinsipi: Luriya miya plastiklik qobiliyatiga ega, ya'ni o'qitish yoki shikastlanish natijasida o'z funksiyalarini qayta qurish qobiliyatiga ega ekanligini ta'kidladi.

Luriya nazariyasi neyropsixologiya, klinik psixologiya va pedagogika rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. U psixik jarayonlarning miya mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga va neyropsixologik diagnostika va rehabilitatsiya usullarini ishlab

chiqishga yordam berdi. Uning ishlari, shuningdek, afaziyani o'rganish va ularni davolash usullariga katta hissa qo'shdi. Luriyaning ishlari bugungi kungacha neyropsixologiyada asosiy hisoblanadi. Shunday qilib, A.R. Luriyaning miyaning uchta funksional bloki nazariyasi bilish jarayonlarining neyrofiziologik mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

Birinchi blok (energetik) miyaning zarur faollik darajasini ta'minlaydi, ikkinchi blok (axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash) sensor axborotni tahlil qilish uchun javobgar, uchinchi blok (dasturlash, tartibga solish va nazorat) harakatlarni rejalashtirish va bajarish uchun javobgardir. Bu bloklar ishidagi buzilishlar o'qishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham miyaning kognitiv funksiyalarini o'rganish ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kognitiv jarayonlarning ishlash sifati avvalo diqqatning sifati va taqsimlanishiga bog'liq. Diqqat o'quvchilarga muhim axborotga e'tibor qaratishga imkon beradi, xotira esa uni saqlash va takrorlash imkonini beradi. Bu jarayonlarni rivojlantirish muvaffaqiyatli o'qitish uchun muhim ahamiyatga ega.

Diqqat kabi o'quv jarayonida idrok va tafakkurning roli ham katta. Idrok o'quvchilarga o'quv materialini tushunish va anglash imkonini beradi, tafakkur esa bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va qo'llash imkonini beradi. Bu jarayonlarning rivojlanishi tushunish va muammolarni hal qilishni yaxshilashga yordam beradi[3]. Pedagoglar o'quvchilarning idrok va tafakkurini rivojlantirish uchun muammoli o'qitish, loyiha faoliyati va munozaralar kabi usullardan foydalanishlari mumkin.

Barcha bilish jarayonlari biri ikkinchisini ishlashga ta'sir ko'rsatadi. Tafakkurning namoyon bo'lishi nutq orqali amalga oshiriladi. Nutq muloqot va fikrlarni ifodalash vositasidir. Nutqning rivojlanishi kommunikativ ko'nikmalarni va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Pedagoglar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun munozaralar, taqdimotlar va guruhli ish kabi usullardan foydalanishlari mumkin.

Lev Vigotskiy tomonidan kiritilgan "*Yaqin rivojlanish zonasi*" (YaRZ) tushuncha, bolaning mustaqil ravishda qila oladigan ishi va kattalar yoki ko'proq malakali tengdosh yordamida qila oladigan ishi o'rtasidagi farqni tasvirlaydi. Boshqacha aytganda, bu bolaning salohiyati, uning qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlaridir. Kattalar (yoki ko'proq malakali tengdosh) roli: Kattalar bolaga yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradigan "vositachi" rolini o'ynaydi. U qo'llab-quvvatlaydi, yo'naltiradi, tushuntiradi va namoyish etadi, bolaning rivojlanishning keyingi darajasiga ko'tarilishi uchun sharoit yaratadi.

Vigotskiy o'qitish YaRZga yo'naltirilishi kerak deb hisoblagan. Bu vazifalar qiyinchiliklarni keltirib chiqarish uchun yetarlicha murakkab bo'lishi kerak, ammo yordam berib bajartirish ham kerak deganidir. Bunday o'qitish tafakkur, nutq va xotira

kabi yuqori ruhiy funksiyalarning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Pedagogikada YaRZ konsepsiyasi har bir o‘quvchining salohiyatini hisobga olgan holda individuallashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish uchun ishlatiladi. Shuningdek, u o‘qitish jarayonida hamkorlik va o‘zaro ta’sirning ahamiyatini oshiradi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o‘qitish jarayonini tushunish va optimallashtirish uchun kuchli vositadir.

Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi kabi J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyalari: Piaje kognitiv rivojlanishning to‘rt bosqichini ajratib ko‘rsatdi: sensomotor, preoperatsion, konkret-operatsion va formaloperatsion. Har bir bosqich tafakkur va bilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Pedagoglar ushbu nazariyadan o‘quvchilarning yoshiga mos keladigan o‘quv materiallarini yaratish uchun foydalanishlari mumkin. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning rivojlanishning turli bosqichlarida bilim olishi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishini tasvirlaydi. Pedagoglar ushbu nazariyadan o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘quv materiallarini ishlab chiqish uchun foydalanishlari mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Motivatsiya, interfaol usullar, ijobiy psixologik muhit va individual yondashuv orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni faol shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent, 2021.
5. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. — Toshkent, 2019.